

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ГЕОДЕЗИЧЕСКАЯ
ИССЛЕДОВАНИЯ
И ТЕХНОЛОГИИ

1931
SLOM KARIMOV NOMIDDI
TDSU
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

1955
TDSU
TOSHKENT DAVLAT
TEKNIKA UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKUTA-QURILISH
UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbas Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсупов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtaсидagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozoridagi rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoilov I.B., Qayumov J.A., Ismoilov F.B., Qo'idoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budget siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochiliyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faoliyotni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики Бозорова Ирина Жуманазаровна	242
Mahalliy lashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida) Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	247
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	254
Aktualnye voprosy finansirovaniya investitsionnykh proektov Шомуродов Равшан Турсункулович. Раширова Дилфуза Ганиевна	259
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	266
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni Raxmatov Aziz Tolipovich	276
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	280
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	286
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzallikkleri Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	290
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi Muxitdinov Shuxrat Ziyaviddinovich	295
Raqamli iqtisodiyat sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari Bobomuratov Imomkul Islamovich	299
Mehnat resurslaridan foidalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari Kobilova Zebo Bobokulovna	306
Зелёное бюджетирование как инструмент повышения эффективности управления государственными финансами Наимов Шохрух Шарофиддинович	311
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	318
Особенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья Маджидов Абдинаби Аманович	324
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi" dagi o'rnini yaxshilash choralari Umarova Durdona Abdumannabovna	330
Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	335
Analiz mechanizmov upravleniya i kontrolya finansovymi resursami na predpriyatiyah c gosudarstvennoy doley, na primeire AO "Uzmetkombinat" Axmedov Dilshod Tursunkulovich	340
O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili Eshkarayev Bobir Chariyevich	347
Sравнительный анализ отечественных и зарубежных подходов к оценке финансовой устойчивости компаний Утемуратова Магрифа Пердебаевна	354
Uy - joy communal xo'jaligi sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yanada takomillashtirish Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Matkomilov Mirjalol Mirkomil o'g'li	359



Namangan viloyatida nodavlat maktablar salohiyati.....	363
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



NAMANGAN VILOYATIDA NODAVLAT MAKTABLAR SALOHIYATI

Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

tayanch doktoranti (PhD)

sodikjonabdusattorov@gmail.com

ORCID: 0009-0000-6779-9425

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda, xususan Namangan viloyatida nodavlat maktablar tizimining shakllanishi va rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi. Maqolada xususiy maktablarning davlat ta'lif tizimidagi o'rni, ular taklif qilayotgan xizmatlar, hududiy taqsimot va iqtisodiy imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, davlat tomonidan yaratilgan huquqiy asoslar va imtiyozlar ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Nodavlat maktablar, xususiy ta'lif, Namangan viloyati, ta'lif tizimi, iqtisodiy imkoniyatlari.

Abstract: This article analyzes the formation and development dynamics of private schools in Uzbekistan, particularly in Namangan region. It discusses the role of private schools in the educational system, the services they provide, their regional distribution, and economic potential. The impact of government incentives and legal frameworks is also examined.

Keywords: Private schools, non-state education, Namangan region, education system, economic opportunities.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы формирования и динамика развития системы негосударственных школ в Узбекистане, в частности в Наманганская области. Рассматриваются роль частных школ в образовательной системе, предоставляемые ими услуги, территориальное распределение и экономический потенциал. Также изучается влияние правовой базы и льгот, предоставленных государством.

Ключевые слова: Негосударственные школы, частное образование, Наманганская область, система образования, экономические возможности.

KIRISH

So'nggi yillarda ta'lif tizimi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlanib kelmoqda. Ta'lif xizmatlari bozorida tadbirkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri bu — nodavlat maktablardir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xususiy ta'lif sektori davlat maktablari faoliyatini to'ldiruvchi, ta'lif sifatini oshiruvchi va raqobat muhitini shakllantiruvchi muhim institut sifatida qaraladi.

O'zbekistonda nodavlat maktablarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ta'lif tizimidagi mavjud muammolarni hal etishga xizmat qilmoqda. Jumladan, umumta'lif maktablarda ortiqcha o'quvchi yuklamasi, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi va smenali ta'lif muammosi xususiy sektorni rivojlanirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, davlat tomonidan yaratilayotgan qulay sharoitlar — soliq imtiyozlari, litsenziyalash jarayonining soddalashtirilishi hamda investorlar uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlar ushbu sohaning kengayishiga turki bermoqda.

Xususan, Namangan viloyati misolida ko'rish mumkinki, nodavlat maktablar qisqa vaqt ichida nafaqat ta'lif sohasida yangi muqabil imkoniyatlarni taqdim etmoqda, balki aholining sifatlari ta'limga bo'lgan talabini qondirishda ham muhim rol o'yynamoqda. Viloyatda so'nggi uch yil ichida xususiy maktablarning sezilarini darajada ko'paygani, ular tomonidan taklif etilayotgan o'quv dasturlari va qo'shimcha xizmatlarning xilma-xilligi, ushbu jarayonning istiqbolli ekanini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J.Smith fikricha, xususiy ta'lif muassasalari dunyo miyisosida davlat ta'lif tizimining muhim to'ldiruvchisi sifatida qaraladi [1]. A.Brownning ilmiy ishlarida ta'kidlanishicha, xususiy sektorning mavjudligi ta'limda raqobatni kuchaytiradi, o'quvchilarga tanlov imkonini yaratadi va ta'lif sifatining oshishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi [2].

C.Lee o'z tadqiqotlarida xususiy maktablarning innovatsion o'quv dasturlarini joriy etish, xorijiy tillarni chuqur o'qitish va yangi texnologiyalarni tezroq tatbiq etish imkoniyati borligini qayd etgan [3].



Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mutaxassislarning fikricha, xususiy sektor ulushining pastligi aholining moliyaviy imkoniyatlari, shuningdek, yangi tashkil etilgan maktablarning tajriba va ishonch to'plash jarayoni bilan izohlanadi [4].

So'nggi yillarda davlat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar xususiy ta'limga qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Xususan, Prezidentning PF-6108-sun farmoni [5], PQ-4312-sun qarori [6] hamda PQ-403-sun qarori [7] xususiy maktablarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, litsenziya olish tartibini soddalashtirish va soliq imtiyozlarini joriy etishni ko'zda tutadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot davomida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, statistika agentligi va Makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining rasmiy ma'lumotlari tahlil qilindi. Shuningdek, Namangan viloyati kesimida nodavlat maktablarning soni, hududiy taqsimoti, ta'limga xizmatlari narxlari va ota-onalarning talablari bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazildi.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi: Qiyosiy tahlil usuli – xorijiy mamlakatlar (AQSh, Xitoy, Hindiston)dagagi xususiy ta'limga ulushi O'zbekiston ko'rsatkichlari bilan qiyoslab o'rnatildi. Statistik tahlil – 2018–2025 yillar oraliq'ida O'zbekistondagi va Namangan viloyatidagi nodavlat maktablarning soni, o'quvchilar soni hamda hududiy taqsimoti bo'yicha rasmiy raqamlar qayta ishlani, jadval va diagrammalar shaklida tahlil qilindi. Hududiy taqqoslash – Namangan viloyati tumanlarida nodavlat maktablarning soni, ulushi va narx siyosati kesimida solishtirma tahlil amalga oshirildi. So'rovnomalar va ekspert baholash – ayrim tumanlarda ota-onalarning xususiy maktablarga nisbatan ishonchi va talabi aniqlash uchun so'rovlar o'tkazildi, mutaxassislarning fikrlari tahlil qilindi. Normativ-huquqiy tahlil – ta'limga sohasidagi davlat siyosati, qonunchilik va hukumat qarorlari nodavlat maktablarning rivojlanishiga ta'siri nuqtai nazaridan o'rnatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'limga xizmatlari bozoridagi tadbirkorlikning an'anaviy turlaridan biri hisoblangan xususiy maktablarning tizimi ham hozirgi kunda jadal suratlar bilan o'sib bormoqda. Ilmiy izlanishlar davomida xorij mamlakatlarining xususiy ta'limga tarmoqlaridagi ulushi va O'zbekiston ulushini qiyosiy tahlildan o'tkazildi. (1-rasm).

Xususiy maktab va oliy ta'limga muassasalari soni bo'yicha O'zbekiston va xorij mamlakatlarining qiyosiy tahlili




1-rasm. Xususiy maktab va oliy ta'limga muassasalari soni bo'yicha xorij tajribalari va O'zbekistonning qiyosiy tahlili [8]



Bundan ko'rinish turganidek, xususiy umumta'lim maktablari salmog'i bo'yicha AQSh 23.3%, Xitoy 34.4% va Hindiston 32.2% ni ko'rsatgan bir paytda, O'zbekistonning bu boradagi ko'rsatkichi atigi 3% ni ko'rstadi. Bu degani hali ushbu sektorga qaratilishi kerak bo'lgan e'tibor juda ham ulkandir.


Xususiy maktablarda farzandlarini o'qitayotgan ota-onalar uchun soliq imtiyozlari 2022-yil 1-apreldan boshlab xususiy maktablar va bog'chalarga kontrakt to'lovini amalga oshirayotgan ota-onalarga oyiga 3 million so'mgacha bo'lgan summada daromad solig'idan ozod etish huquqi berilgan. Aynan shunday sharoit va imtiyozlar natijasida O'zbekistonda 2024/25 o'quv yilining boshlanish payti holatiga, xususiy maktablarda o'qiyotgan o'quvchilar soni 112 ming 93 nafarga yetdi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda 2018-2025-yillarda xususiy maktab o'quvchilari soni [9]

"2022–2023 o'quv yilida respublikada 10 ming 522 ta umumta'lim maktabi faoliyat yuritgan (194 tasi xususiy), maktablar soni 2021–2022 o'quv yilidagiga nisbatan 233 taga oshgan. O'quvchilar soni 6 mln 461 ming 741 nafarni tashkil etgan (ularning 0,71 foizi xususiy maktablarda). Maktablar esa 5 mln 283 ming 916 nafar o'quvchi uchun mo'ljallangan, ya'ni 1 ta o'quvchi o'rniiga 1,2 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda. Buning oqibatida respublikadagi umumta'lim maktablarining 5 tasi uchta smenada va 4 ming 777 tasi ikkita smenada faoliyat yuritadi. Ikkinchisi va uchinchi smenada o'qiydigan o'quvchilar soni 2,1 mln dan oshiq bo'lib, jami o'quvchilarning 33 foizini tashkil etadi. Umumta'lim maktablarining 64,2 foizida oshxonha yoki bufet, 95 foizida kutubxona, 79 foizida sport zali bor. Maktablarning bor-yo'g'i 30 foizi kanalizatsiyaga ega, 70,5 foizida "vodoprovod" mavjud. Umumta'lim maktablarining 99 foizi isitish tizimiga ega." [10], - deb yoziladi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti rasmiy saytida. Ko'rinish turganidek, xususiy maktablarning rivoji faqatgina ta'lim tadbirkorlarigagina emas, butun bir davlatning maktab tizimidagi kamchiliklarnida to'g'rilashga yordam bera oladi.

Namangan viloyatida ham xususiy maktablar shakllanish bosqichida - deyarli davlat miqyosi bilan to'g'ri proporsional holatda (3-rasm). Namangan viloyatidagi xususiy maktablarning ish faoliyatini boshlaganiga hali ko'p vaqt bo'lmadi. Oxirgi 3 yilda, asosan avvaldan Namangan shahrida o'z o'rniiga, ulkan o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasiga, hamda ota-onalar ishonchiga ega bo'lgan "Effortless Education (Start21)", "Learning Skills Lab (LSL)", "Ziyokor" va "Time Trusted Quality (Dombit)" kabi nodavlat ta'lim tashkilotlari – o'quv markazlari o'zlarining xususiy maktablariiga asos soldilar.



3-rasm. Namangan viloyatidagi mavjud xususiy va davlat maktablari nisbati (2024-yil holatiga ko'ra)[11]



Boshqa tumanlardagi xususiy maktablar ham hali hamon boshlang'ich – ishonch qozonish davridalar deb aytish mumkin. Hali Namangan viloyati bo'yicha to'liq 11 yillik ta'limga berib, o'quvchilarini oliy ta'limga yo'naltirishga ulgurgan xususiy maktablarning yo'qligi ham bu sohaning hali ilk bosqichlarida ekanidan dalolat beradi. Shunday bo'lsada, deyarli har bir tumanda xususiy maktablar faoliyatি boshlangani e'tiborga molik (1-jadval).


1-jadval. Namangan viloyati tumanlari kesimida xususiy va davlat maktablari soni [12]

Hudud nomi	Xususiy maktablar	Davlat maktablari
Namangan viloyati	41	725
Namangan shahri	10	57
Davlatobod tumani	4	26
Yangi Namangan tumani	9	20
Mingbuloq tumani	1	50
Kososnsoy tumani	2	56
Namangan tumani	2	38
Norin tumani	0	47
Pop tumani	0	74
To'raqo'rg'on tumani	1	65
Uychi tumani	1	47
Uchqo'rg'on tumani	4	47
Chortoq tumani	3	56
Chust tumani	2	77
Yangiqo'rg'on tumani	2	65

Eng ko'p xususiy maktablar mavjud bo'lgan hududlar – Namangan shahrda 15% (10 ta xususiy maktab) va Yangi Namangan tumani deyarli 50% (9 ta xususiy maktab) maktablar xususiyidir. Yangi Namangan tumani mintaqada xususiy maktablarning davlat maktablariiga nisbati bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega. O'rтacha darajadagi xususiy maktablar mavjudligi bo'yicha – Davlatobod tumani 13% (4 ta), Uchqo'rg'on tumani 8% (4 ta), Chortoq tumani 5% (3 ta), Chust, Kosonsoy va Namangan tumanlarida 2tadan xususiy maktablar mavjud bo'lib, umumiy maktablarning mos ravishda 2%, 3% va 5% larini tashkil etadi.

Namangan viloyatida hali xususiy maktablar mavjud bo'lmagan tumanlar sirasiga, garchi bu hududlarda mos ravishda 47 va 74 ta davlat maktablari faoliyat yuritsa ham, Norin va Pop tumanlari kiradi. Bu holat ushbu tumanlarda xususiy ta'limga sohasiga sarmoya kiritish uchun salohiyat mavjudligini ko'rsatmoqda (4-rasm).

Tahliillardan ko'rinish turibdiki, xususiy maktablar asosan urbanizatsiyalashgan hududlarda, ayniqsa Namangan shahri va Yangi Namangan tumanida to'plangan. Xususiy maktablar mavjud bo'lmagan yoki soni kam bo'lgan tumanlar (masalan, Pop va Norin) – kelajakda rivojlanish yoki ta'limga sohasida sarmoya kiritish uchun istiqbolli yo'naliishlar hisoblanadi. Umumiy hisobda, xususiy maktablarning ulushi bor-yo'g'i 5.4% ni tashkil qiladi, bu esa mintaqada bozor hali shakllanish bosqichida ekan va sezilarli o'sish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi.



4-rasm. Namangan viloyatida xususiy maktablar ochish uchun qulay hududlar [13]

Deyarli barcha tuman so'rovnomalar ishtirokchilarining 80% xususiy maktablarni tanladilar. Boshqa tomondan xususiy maktablarning muvaffaqiyatlari faoliyat yuritib ketishi ular taklif etayotgan oylik o'quv to'lovlari miqdoriga ota-onalarning moliyaviy qobiliyati asosiy omil hisoblanadi.

Xususiy maktablarning umumiyligi taklif etayotgan xizmatlariga asosan quyidagilar kirmoqda:

- ertalab 8dan, kechki soat 5gacha nazorat (ko'plarida telefonsiz);
- 2 mahal issiq ovqat (ayrimlarida tushlikka 2xil);
- turli fanlarga ixtisoslashuv;
- qo'shimcha tillar o'rnatish: Ingiliz, Rus, Koreys tillari (sertifikatlar);
- darslardan keyingi doimiy sport to'garaklari.
- yotoqxonalar (ba'zilarida)

O'ziga xos takliflardan:

- 5 kunlik ta'lif + har shanba ko'ngilochar mashg'ulotlar: turli ekskursiyalar, sport va madaniy tadbirlar (Novda Milliy Maktabi);
- 2 ta yo'nalishga maktab avtobuslari (Novda Milliy Maktabi);
- America franchizasi asosida Robototexnika darslari (LSL School);
- Majburiy suzish mashg'ulotlari (Ibrat private school).

O'zbekistonda xususiy maktablarga davlat tomonidan ko'plab imtiyoz va imkoniyatlar taqdim etilayotgani ham ushbu sohaning Namangan viloyatida ham saolihayati keng ekanligiga dalolat beradi. Xususan, Yuridik va litsenziya olish jarayonining soddalashtirildi va Prezident qarori PQ-4312 (2019-yil) asosida jismoniy va yuridik shaxslarga umumiy o'rta ta'lif maktablarini ochish imkoniyati berilgan[14]. Litsenziya olish "my.gov.uz" portali orqali soddalashtirilgan – bu jarayonni tez va byurokratiyasiz amalga oshirish imkonini yaratadi. Xususiy maktablarni mahalliy yoki xorijiy investorlar, NNTlar, hattoki jismoniy shaxslar ham ochishi mumkin.

Mahalliy hokimiyatlar bo'sh turgan davlat binolari yoki yer maydonlarini ta'lif maqsadida ijara yoki imtiyozli shartlarda sotib olish imkonini beradi. Namangan viloyatida ko'plab yangi maktablar aynan ta'mirlangan sobiq davlat obyektlari asosida tashkil etilgan.

Prezidentning PQ 403-sonli qarori (2024-yil 22-novabr) bilan nodavlat maktabgacha va maktab tashkilotlari 2030-yil 1-yanvarga qadar barcha turdag'i soliq va yig'imlardan ozod qilinmoqda. Ulardagi rahbar va o'qituvchilar malakasini oshirish davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi [15].

Ba'zi hududlarda xususiy maktablarga qabul qilingan kam ta'minlangan oila farzandlariga davlat tomonidan subsidiya yoki vaucherlar ajratiladi. Bu dasturlar ayniqsa ortiqcha yuklama bo'lgan yoki resursi kam davlat maktablari bo'lgan joylarda bosqichma-bosqich kengaytirilmoqda. Namangan viloyatidagi ko'plab xususiy maktablar ham ichki oylik imtihonlarda yoqori natija qayd etgan o'quvchilarga imtiyozli vaucherlar taqdim etadilar.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyatidagi nodavlat maktablar hozircha ta'lim tizimining kichik ulushini tashkil etayotgan bo'lsa-da, ularning rivojlanish salohiyati katta. Aholining ishonchi va talabining yuqoriligi, davlat tomonidan yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar kelajakda bu sektorda tez sur'atlarda o'sishni ta'minlashi mumkin. Shuningdek, xususiy maktablar davlat ta'lim tizimidagi ortiqcha yuklamani kamaytirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'yynashi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Smith, J. (2018). Private Education and Its Role in Modern School Systems. New York: Springer.
2. Brown, A. (2020). Education Markets and Private Sector Growth. Oxford: Oxford University Press.
3. Lee, C. (2019). Innovation in Private Schools: Comparative Perspectives. Journal of International Education Research, 15(2), 45–60.
4. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti. (2023). O'zbekiston ta'lim tizimidagi nodavlat sektor ulushi. Toshkent: Institut nashri.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni (2020-yil 6-noyabr). Ta'lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son Qarori (2019-yil). Nodavlat umumta'lim maktablari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-403-son Qarori (2024-yil 22-noyabr). Nodavlat ta'lim muassasalarini soliq va yig'imlardan ozod qilish to'g'risida.
8. Internet ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
9. <https://kun.uz/en/news/2025/03/17/a-75-increase-more-parents-choosing-private-schools-for-their-children> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
10. https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/talim_sifati
11. Namangan viloyat statistika boshqarmasi va erp.maktab.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
12. Namangan viloyat statistika boshqarmasi va erp.maktab.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
13. Muallif tadqiqotlari asosida.
14. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, Toshkent sh., 2019-yil 8-may, PQ-4312-son
15. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/23/tax/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100